

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

Farg‘ona davlat texnika universiteti

_____ **U.R.Salomov**

“ _____ ” _____ 2025 y.

**18.00.02 – "Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini
rejalashtirish. Landshaft arxitekturasini. Bino va inshootlar arxitekturasini
ixtisosligi bo'yicha (PhD) tayanch doktorantura, stajyor-tadqiqotchi va
mustaqil izlanuvchi institutiga kirish sinovida bilim darajasini belgilovchi
maxsus fanlarni**

**DASTURI VA BAHOLASH
MEZONLARI**

Farg‘ona 2025

Jo‘rayev O‘.Sh., Axmedov J.D., Jo‘raboyev A.T.

18.00.02 – “Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturası. Bino va inshootlar arxitekturası” ixtisosligi bo‘yicha imtihon dasturi. – Farg‘ona: Farg‘ona davlat texnika universiteti, 2025. – 16 b.

Imtihon dasturi va baholash mezonlari “Arxitektura va kompyuter grafikasi” kafedralari yig‘ilishida muhokama qilingan.

2025-yil 25-oktyabr, bayon №5.

Farg‘ona davlat texnika universiteti Ilmiy-texnik Kengashining 2025-yil “_____” _____da bo‘lib o‘tgan majlisida ko‘rib chiqilgan va maqullangan.

Ushbu malakaviy imtihon dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4851-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2016-yil 28-yanvardagi 220/2-sonli “Malakaviy imtihonlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qaroriga muvofiq tayyorlangan.

Taqrizchi:

Adilov Z. H.

Toshkent arxitektura qurilish universiteti,
“SHaharsozlik” kafedrası mudiri, arx.f.d., professor

© Farg‘ona davlat texnika universiteti, 2025-yil

KIRISH

18.00.02 – “Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasini. Bino va inshootlar arxitekturasini” ixtisoslik pasporti asosida ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash jarayonlarini yanada rivojlantirish, qurilish va arxitektura sohasi bilan bog‘liq masalalarni nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirib borish hozirgi kunning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Shu boisdan, shaharsoz mutaxassislardan, ularning yuqori darajadagi bilim va kasbiy malakalarga ega bo‘lishligi, arxitekturaviy loyihalash bilan bog‘liq ilg‘or xorijiy usullarini puxta o‘rganishlari, bu borada, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni, shaharsozlik sotsiologiyasini, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha loyihaviy takliflarni ishlab chiqish kabi fanlarni puxta o‘rganishlari kerak. Aholining, ayniqsa, qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi aholining sharoitlarining yaxshilanishi Respublikamiz shaharsozligida jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sodir etilishini nazarda tutadi. Shaharsozlik g‘oyalari va shahar landshafti yechimini ishlab chiqishda, bino va inshootlarni loyihalashda hamda qurilishni amalga oshirishda ijtimoiy, iqtisodiy, energosamaradorlik masalalarni yechimini topish va bu borada ilmiy tadqiqotlarni olib borish hamda inson omili, hayoti faoliyati uchun sun‘iy muhitni yaratish o‘z talablarini qo‘ymoqda. Bu borada ko‘plab ilmiy izlanishlar qilingan va olib borilmoqda. Ana shu masalarga oid jarayonlarni dunyo amaliyotida ko‘rish, kuzatish, ilmiy tahlil qilish, tadqiqot olib borish va ulardan to‘g‘ri foydalanish muhim ahamit kasb etadi. Dasturni tuzishda rayonlashtirish, shaharsozlik, qishloq turar joylarini rejalashtirish, landshaft arxitekturasini, bino va inshootlar arxitekturasining barcha mutaxassislik fanlariga doir mavzular kiritilgan. Dasturga shahar va qishloqlarni arxitekturaviy-rejaviy tashkil etish, shaharsozlikning kelajak g‘oyalarini ishlab chiqish, landshaft hamda rekreatsion hududlarni tashkil etishda mavjud muammolarni hal qilish masalalari, bino va inshootlar loyihalashda shaharsozlik

masalalarini hal qilishning o'ziga xos xususiyatlari, muammolar yechimiga qaratilgan savollar kiritilgan.

Dastur beshta bo'limdan iborat bo'lib, ularning ketma – ketligi umumiydan – xususiyligga, qadimdan – hozirgi kungi tomoyili asosida rivojlangan.

DASTURNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Ushbu dastur shaharsozlik tarixi, nazariyasi, shaharlarni barpo etish, qayta qurish, shahar va tuman bosh rejalarini tashkil qilish, landshaft hamda rekreatsion hududlarni tashkil etish bo'yicha ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga qaratilgan bo'lib, 18.00.02 – “Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasini. Bino va inshootlar arxitekturasini” ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihon dasturi Arxitektura fanlari bo'yicha falsafa doktorlarini tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Shu boisdan, arxitekturashunos, shaharsoz, tumanni rejalashtirish va hududiy joylashtirish (master reja), shahar landshaftini tashkil etish, ta'mirlash va qayta tiklash, hududlar estetikasi (dizayn kod) bo'yicha mutaxassislardan, ularning yuqori darajadagi bilim va kasbiy malakalarga ega bo'lishligi, ta'mirlash bilan bog'liq ilg'or usullarini puxta o'rganishlari, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni (BIM), arxitekturaviy yodgorliklardan zamonaviy maqsadlarda foydalanish usullarini puxta bilishlari talab etiladi.

Dasturning maqsadi - zamonaviy talablarni ko'zda tutgan holda, talabgorlarning arxitektura va qurilish tarixi, hududlarni rejalash va qayta qurish, bino va inshootlarni loyihalash kurslari bo'yicha bilimlarini shuningdek, shaharsozlik asoslari va taraqqiyot bosqichlari, shaharsozlikning yangi bosqichdagi uslub va yo'nalishlari bo'yicha ko'nikma va malakalari shakllanganligini aniqlashdan iborat.

Dasturning vazifasi – zamonaviy shaharsozlik asoslarini o'rganish, eng yirik shaharsozlar ijodini tahlil etib, ularning yutuqlaridan unumli foydalanish, hamda boy tarixiy an'anaviy uslublarimiz orqali zamonaviy o'zbek shaharsozligini rivojlantirishdan iborat.

Mazkur malakaviy imtihon dasturi shaharsozlik va landshaft loyihalash, shahar-tuman bosh rejalarini loyihalash, Arxitektura va qurilish tarixi, bino va inshootlar tipologiyasi hamda arxitekturaviy loyihalash kabi fanlarni qamrab oladi.

1 - BO'LIM: SHAHARSOZLIK VA LANDSHAFT LOYIHALASH

Shaharlar rivojining demografik jarayonlari. Shaharlarning mehnat resurslari. Yangi hududlar tanlash va mavjud shaharlarning rivojlanishi. Shaharsozlik tipologiyasi. Shaharlarning rejaviy tashkil etilishi. Shaharning aholi turar joy zonasi. Turar joy tumanlari. Shaharda ishlab chiqarish va omborxonalar hududi. Shaharning rekreatsion hududi. Tuman va kichik tumanlarni loyihalashning badiiy ahamiyati. Shaharlarning jamoat markazi. Shaharsozlik g'oyalari. Shahar tizimida ansambllarning tashkil etilishi va ahamiyati.

Shahar ko'kalamzorlashtirish tizimining shakllanishi. Ko'p funksional parklar. Maxsus bog'lar va parklar. Jamoat binolari atrofida landshaft tashkil etish. Bulvarlar, trotuarlar, skverlar va suv havzalari atrofini ko'kalamzorlashtirish.

2 - BO'LIM: SHAHAR, TUMAN BOSH REJALARINI LOYIHALASH

Shaharsozlik bo'yicha ilmiy-loyihaviy ishlar, tuman rejalashning o'rni va ahamiyati. Hududning antropogen xususiyatlarining baholanishi. Tuman rejalashning demografik sig'imini aniqlash. Shahar aholisi va mehnat resurslari. Tuman rejalash hududlarining joylashuvi. Ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirish. Agrosanoat kompleksi. Funksional hududlash va rejaviy struktura. Aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari va ularning joylashuvi. Aholining dam olish, kurort davolanish va turizm ob'ektlarining joylashuvi. Hududning estetik tashkil etilishi. Atrof-muhitni muhofaza qilish. Tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash. Tuman rejalashning transport masalalari. Tuman rejalashning muhandislik va texnik infratuzilmasi.

3 - BO'LIM: ARXITEKTURA VA QURILISH TARIXI

Turli davrlardagi me'morlik yutuqlari, qurilish texnologiyalari va uslublarining rivojlanishi, qadimiy sivilizatsiyalar, o'rta asr va zamonaviy davrlar arxitekturasini, uslubiy yo'nalishlar, konstruktiv yechimlar va materiallardan foydalanish, tarixiy me'morlik yodgorliklarini o'rganish, madaniy merosni saqlash, turli davrlar arxitekturasini qiyosiy tahlil qilish, arxitekturaviy va qurilish an'alarini zamonaviy loyihalarda qo'llash, tarixiy va mintaqaviy o'ziga xosliklarni, davrlar arxitekturasidagi shakl-fazoviy yechimlarni, konstruktsiya va dekorativ elementlarni tahlil qilish, arxitekturaviy merosni muhofaza qilish va restavratsiya qilish.

4 - BO'LIM: BINO VA INSHOOTLAR TIPOLOGIYASI

Turar-joy, jamoat, sanoat, ma'muriy binolarning tipologik asoslari, funksional – loyihaviy, texnik, iqtisodiy yechimlari; turar joy va jamoat binolarining soniyali sifatleri, qurilishi parametrlari; ichki muhitni funksional shakllantirish tamoyillari; bino va inshootlarning texnologik, kommunikatsiyaviy bog'liqliklari to'g'risidagi tushuncha; mavjud bino va inshootlarining funksional tashkil qilish bo'yicha tahlil; arxitekturaviy-tipologik vazifalarni yechish; xizmat ko'rsatish bosqichlari, bino va inshootlar klassifikatsiyasi, fuqarolik binolarning shaharda joylashuvi; jamoat va ma'muriy binolarning shahardagi dominantlik roli; turar-joylar, xonadon tarkibi, kam qavatli, o'rta qavatli, ko'p qavatli, yacheykali, qisqa muddatli turar-joy binolari; o'quv-tarbiya, tomosha, ilmiy muassasa, sport, sog'lomlashtirish, ma'muriy, dam olish binolari.

5 - BO'LIM: ARXITEKTURAVIY LOYIHALASH

Turar – joy, jamoat, sanoat, ko'p funksiyali bino va inshootlarni arxitekturaviy-fazoviy shakli va ularning funksional hamda texnologik yechimini loyihalashtirish. Arxitekturaviy loyihalashda shaharsozlikdagi vazifasini, bino tiplari normalarini, ekologik talablarini va xonalar turkimlarini aniqlash belgilanadi. Loyihalarni tuzishda grafik ko'nikma, funksional, arxitektura - badiiy, konstruktiv va iqtisodiy tomondan loyihalash uslublarini o'zlashtirish, klauzura ishlarini bajarish, qisqa vaqtda bajariladigan loyihalarda

badiiy kompozitsion, funksional talablarni his etish, loyiha bosqichlarida ijodiy yondoshish, eskiz g'oya ustida ishlash, arxitekturaviy muhitni tashkil etish, loyihalashga shaxsiy ijodiy yondoshish.

18.00.02 – “Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasini. Bino va inshootlar arxitekturasini” ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutining tayanch doktorantura (PhD)ga o‘qishga kirish uchun o‘tkaziladigan yozma-og‘zaki kirish imtihonida talabgorlarning bilimini baholash mezonlari

18.00.02 – “Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasini. Bino va inshootlar arxitekturasini” ixtisosligi bo‘yicha kirish imtihoni tanlangan ixtisoslik bo‘yicha talabgorlarning nazariy bilimlari, ilmiy-tahliliy fikrlash qobiliyati hamda kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash va baholash maqsadida yozma-og‘zaki shaklda o‘tkaziladi.

Talabgorlarning har bir savolga javobi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Bayon qilingan materialning to‘liqligi;
2. Javobning imtihon savoliga mantiqan mosligi;
3. Javoblarning aniqligi va mantiqiy yaxlitligi;
4. Ilmiy-uslubiy tilda savodli bayon qilinishi, aniq ta’rif va atamalardan to‘g‘ri foydalanilishi;
5. Fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarini, zamonaviy ilmiy yondashuvlarni amaliyot bilan bog‘lay olish, ilmiy-amaliy ahamiyatini tushunish qobiliyati;
6. Hukumat qarorlari, tegishli davlat dasturlari va me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tushunish darajasi;
7. Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va normativ-huquqiy asoslarni anglash darajasi;
8. O‘z fikrini aniq va asosli bayon qila olish, mustaqil fikrlash hamda nazariya va amaliyotga tanqidiy yondasha olish qobiliyati.

Baholash mezonlari quyidagicha belgilanadi:

Talabgorlar imtihon biletida berilgan 4 ta savol bo‘yicha javoblarni avval yozma tarzda bayon etadilar, so‘ng ularning mazmunini imtihon komissiyasi huzurida og‘zaki himoya qiladilar. Har bir savol uchun 25 ballgacha baho qo‘yiladi (jami 100 ball).

Yozma va og‘zaki qismlar alohida imtihon sifatida emas, yagona yozma-og‘zaki imtihon natijasi sifatida baholanadi. Yozma javoblar yuqori saviyada bo‘lgan taqdirda ham, agar og‘zaki izoh yetarli bo‘lmasa yoki yozma javobni tasdiqlamas, maksimal ball qo‘yilmaydi.

Yozma va og‘zaki javoblar o‘zaro uyg‘un bo‘lishi lozim; biri ikkinchisiga zid bo‘lgan holatlarda ball kamaytiriladi.

Baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

86-100 ball	qo'yilgan savollarga nazariy jihatdan to'g'ri va ijodiy yondashgan holda ilmiy qarashlar bilan ifoda etilgan javoblar keltirilgan hamda mustaqil fikr-mulohazalar va xulosalar bilan boyitilgan bo'lsa;
71-85 ball	avollarga to'liq javob berishga harakat qilingan, nazariy jihatdan to'g'ri va ijodiy yondashuv mavjud, biroq ayrim tushunchalar va ta'sir etuvchi omillarni bayon etishda kamchiliklarga yo'l qo'yilgan yoki fikr va yechimlar to'liq asoslanmagan bo'lsa;
56-70 ball	savollar mohiyati yuzaki yoki qisman ochib berilgan, tegishli tushunchalar yetarli darajada yoritilmagan, fikr-mulohazalar va xulosalar to'liq bayon etilmagan bo'lsa;
0-55 ball	savollarga javob berilmagan, noto'g'ri talqin qilingan yoki masalaga izoh berilmagan hollarda

Imtihon komissiyasi zaruratga ko'ra talabgorga tanlangan ixtisoslik, tadqiqot yo'nalishi, mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqot usullari va ilmiy natijalarini qo'llash imkoniyatlari yuzasidan qo'shimcha savollar berishi mumkin.

18.00.02 – “Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasini. Bino va inshootlar arxitekturasini” ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutining stajyor-tadqiqotchilik, doktorantura (DSc) va mustaqil izlanuvchi shakllariga o'qishga qabul qilish uchun o'tkaziladigan suhbatda talabgorlarning ilmiy salohiyatini baholash mezonlari

18.00.02 – “Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasini. Bino va inshootlar arxitekturasini” ixtisosligi bo'yicha stajyor-tadqiqotchilik, doktorantura (DSc) va mustaqil izlanuvchilikka o'qishga qabul qilish uchun o'tkaziladigan suhbat tanlangan ixtisoslik bo'yicha talabgorlarning nazariy tayyorgarligi, ilmiy-tahliliy fikrlashi, tadqiqot olib borish qobiliyati hamda kasbiy moslik darajasini aniqlash va baholash maqsadida o'tkaziladi.

Baholash mezonlari quyidagicha belgilanadi:

Suhbat ixtisoslik bo'yicha 4 ta savoldan iborat bilet asosida o'tkaziladi. Har bir savol bo'yicha 0 dan 25 ballgacha, jami 100 ball qo'yiladi. Talabgor bilet savollari bilan tanishib, zarur hollarda o'zi uchun qisqa yozma qaydlar tayyorlashi mumkin, biroq bu qaydlar baholash obyekti hisoblanmaydi. Baholash faqat talabgorning og'zaki javoblari va suhbat jarayonidagi fikrlari

asosida amalga oshiriladi. Imtihon komissiyasi javoblarni aniqlashtirish va chuqurlashtirish maqsadida qo‘shimcha savollar berishi mumkin.

Talabgorlarning har bir og‘zaki javoblari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Javoblarning to‘liqligi va mazmunan asoslanganligi;
2. Savollarga javoblarning mantiqan izchil va aniqlik bilan bayon etilishi;
3. Ilmiy-uslubiy tilda fikrni to‘g‘ri, ravon va aniq ifoda eta olish;
4. Tanlangan ixtisoslik bo‘yicha nazariy bilimlar chuqurligi va tizimlilik;
5. Tadqiqot metodologiyasi va zamonaviy ilmiy yondashuvlar bo‘yicha tushunchaga ega bo‘lish;
6. Fan va texnika yutuqlarini hamda dolzarb ilmiy masalalarni amaliyot bilan bog‘lay olish;
7. Mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil yuritish va asosli xulosalar bera olish;
8. Komissiya savollariga tezkor, mantiqli va ishonchli javob qaytara olish.

Baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

86-100 ball	Javoblar yuqoridagi mezonlarga to‘liq javob bergan, chuqur, ilmiy asoslangan va tahliliy darajasi yuqori bo‘lgan hollarda;
71-85 ball	Javoblar asosan to‘liq va to‘g‘ri bo‘lib, ayrim kamchilik va noaniqliklarga yo‘l qo‘yilgan hollarda;
56-70 ball	Javoblar qisman izchil bo‘lib, ayrim savollar yuzaki ochilgan yoki ilmiy asos va tahlil yetarli bo‘lmagan hollarda;
0-55 ball	Javoblar yuzaki bo‘lgan, savollarga mos emas yoki ilmiy saviya talab darajasiga javob bermagan hollarda.

Mazkur suhbat mezonlari stajyor-tadqiqotchilik, doktorantura (DSc) va mustaqil izlanuvchilik shakllariga o‘qishga qabul qilishda qo‘llaniladi. Imtihon komissiyasi zaruratga ko‘ra talabgorga tanlangan ixtisoslik, tadqiqot yo‘nalishi, mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalar, obykti, predmeti, tadqiqot usullari hamda kutilayotgan ilmiy natijalar yuzasidan qo‘shimcha savollar berishi mumkin.

18.00.02–“Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi”

ixtisosligi bo'yicha savollar

Shaharsozlik va landshaft loyihalash

1. “Shaharsozlik kodeksi” nima?
2. “Shaharsozlik reglamenti” nima?
3. Shaharlarni kompleks rivojlantirish va obodonlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.
4. Shaharlarda transport tizimini funksional rejalashtirish masalalari to'g'risida batafsil ma'lumot bering.
5. Shahar ko'cha-yo'llarini rejalashtirishning asosiy vazifalari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar.
6. Landshaft loyihalashni dastlabki shartlar asosida rivojlantirish tamoyillarini aytib bering.
7. Turistik va rekreatsion hududlarni landshaft rejalashtirish.
8. Suv manbalari mavjud hududlarni landshaft rejalashtirish va rekreatsion tashkillashtirish.
9. Transport, temir yo'l va texnik inshoot hududlarini landshaft rejalashtirish.
10. Sanoat korxonalari hududlarini landshaft rejalashtirishni tashkil etishdagi asosiy omillar.

Shahar, tuman bosh rejalarini loyihalash

1. Shahar va tuman bosh rejalarini loyihalashning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Qishloq aholi yashash punktlari aholining soniga qarab qanday guruhlariga bo'linadi?
3. Aholi punktlarining bosh rejasi deganda nimani tushunasiz?
4. Qishloq aholi punktlarini rekonstruksiya qilishda qanday asosiy shaharsozlik muammolarini yechish kerak?

5. Shahar va tumanlarni rejalashtirishda tabiiy-iqlimiy omillarini hisobga olish qanchalik muhim?
6. Hududlarni rejalashtirishda master reja va bosh reja o'rtasidagi bog'liqlik va farqli jihatlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
7. "Aglomeratsiya" va "megapolis" atamalari nima va qanday ta'riflanadi?
8. "Urbanizatsiya" va "soxta urbanizatsiya" atamalarini batafsil yoritib bering.
9. Aholi punktlarining bosh rejasi bilan qanday loyiha yechimlari belgilanadi?
10. Shaharsozlikda qizil chiziq va qurilish chizig'i to'g'risida batafsil ma'lumot bering.

Arxitektura va qurilish tarixi

1. Gizadagi piramidalar qurilishi va arxitekturasi tarixini bayon qiling.
2. Qadimgi Yunon (Gretsiya) arxitekturasi haqida batafsil ma'lumot bering.
3. Gotika davri arxitekturasi hos jihatlarni yoritib bering.
4. Qadimgi Misr arxitekturasi va shaharsozligi. Order tizimi.
5. Vizantiya arxitektura va shaharsozligi. Arxitekturada Roman uslubi.
6. Barokko uslubi. Klassik rejalashtirish tarkibi va tartibi.
7. Qadimgi O'rta Osiyo: Avesto, Shimoliy Parfiya, Shimoliy Baqtra me'morchiligi va shaharsozligi to'g'risida batafsil ma'lumot bering.
8. Qadimgi O'rta Osiyo: Sug'd, Xorazm, Choch, Parkana arxitekturasi va shaharsozligi to'g'risida batafsil ma'lumot bering.
9. Qadimgi Rim muxandis-me'mori Vitruviy haqida nimalarni bilasiz va u yaratgan arxitektura haqidagi asarini tavsiflab bering.
10. Italiyada uyg'onish (Renessans) davri arxitekturasi haqida batafsil ma'lumot bering.

Bino va inshootlar tipologiyasi

1. Arxitekturada bino va inshootlar tipologiyasiga iqlim va madaniy an'analar qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Sport inshootlarining turlari to'g'risida batafsil ma'lumot bering.
3. Turar – joy binolarining qavatlilik bo'yicha turlari va ularni loyihalashga qo'yilgan talablar haqida nimalarni bilasiz?
4. Jamoat binolarini markaziy blokli va pavilion tipidagi kompozitsion yechimlaridagi afzalliklar va kamchiliklar.
5. Madaniy-ma'rifiy binolarning tipologik yechimlari.
6. Shaharsozlikda yirik binolarining ahamiyati va ularni loyihalashga qo'yilgan talablar.
7. Loyihalashda, ijtimoiy asoslashda, prognozlashda qaysi ilmiy uslublardan foydalaniladi?
8. Binolar tipologiyasini shakllantiruvchi asosiy mezonlar (funksional, konstruktiv, morfologik, ijtimoiy va ekologik) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib bering.
9. Diniy va marosim binolari tipologiyasining tarixiy evolyutsiyasini tahlil qilgan holda ular to'g'risida ma'lumot bering.
10. Innovatsion texnologiyalar va raqamli arxitektura tipologik jarayonga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

Arxitekturaviy loyihalash

1. Kompozitsion markaz, ritm, kontrast, dominant, masshtab va proporsiya tushunchalarining o'zaro uyg'unligini ilmiy asosda tahlil qiling.
2. Savdo va maishiy xizmat ko'rsatish muassasalarining arxitekturaviy yechimlari va ularning shaharsozlikda tutgan o'рни.
3. Binolarni energiya tejankor va ekologik jihatdan loyihalash uchun qanday yechimlar mavjud?
4. Turli funksiyadagi binolarni (turar-joy, jamoat, sanoat) loyihalashda asosiy farqlar nimalarda namoyon bo'ladi?

5. Tabiiy yorug'lik va shamollatish binoning loyihaviy yechimiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. Oilaning demografik tarkibi kam qavatli turar-joy binolarini loyihalashda nima uchun muhim?
7. Hududning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari qanday hisoblanadi va baholaniladi?
8. BIM (Building Information Modeling) texnologiyasining arxitekturaviy loyihalashdagi afzalliklari va qo'llanish imkoniyatlarini tushuntiring.
9. Arxitekturaviy loyihalash jarayonining asosiy bosqichlarini bayon qiling va har bir bosqichning vazifasi hamda ahamiyatini tushuntiring.
10. Arxitekturada inson omili (antropometrik va ergonomik talablar asosida) loyihalash jarayonida qanday ahamiyat kasb etadi?

ADABIYOTLAR

1. Isamuxamdova D.U., Adilova L.A. “Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasini”. Darslik. 1-qism., Toshkent, 2009
2. Isamuxamdova D.U., Adilova L.A. «Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasini”. Darslik. 2-qism., Toshkent, 2009
3. ShNQ 2.07.01-13* Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishni rejalashtirish. T. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi. 2009
4. Adilova L.A. Landshaft arxitekturasini: I qism, o‘quv qo‘llanma, – Toshkent: IPTD “Uzbekistan”, 2009 y.
5. Adilova L.A. Landshaft arxitekturasini:II qism, darslik-Toshkent: TASI 2009 y.
6. Isamuxamdova D.U., Sadikova M.A., Muminova K.R. “Shaharsozlik loyihalash”. O‘quv qo‘llanma, TAQI. Toshkent 2015 y.
7. Isamuxamdova D.U., Mirzaev M.K. “Zamonaviy shaharsozlik nazariyasi”. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2015 y.
8. Селимова С.. “Формирование понятия ландшафтный урбанизм в градостроительстве”. Национальная академия природоохранного и курортного строительства. Донбасс. 2014 г.
9. Ubaydullaev X.M, Inog‘omova M.M. “Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari” darslik., Toshkent 2009 y.
10. Хидоятов Т.А. “Типология общественных зданий” ўқув қўлланма., Ташкент 2008г.
11. X.M.Ubaydullaev, G.I.Korobovsev, Y.I.Abduraxmanov, Ya.M.Mansurov “Arxitekturaviy loyihalash” o‘quv qo‘llanma., Toshkent 2012.
12. B.I.Inogomov “Zamonaviy bino va inshootlarni loyihalash” Toshkent o‘quv qo‘llanma.,2011y
13. ShNQ 2.08.02-09* “Jamoat bino va inshootlari”. T. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi. 2009
14. Гелфонд А.Л. “Проектирование общественных зданий” Москва 2006

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-sonli Farmoni
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 fevraldagi PQ- 4201-son “Obod qishloq” dasturi to‘g‘risida”gi Qarori.
17. O‘zbekiston Respublikasining shaharsozlik kodeksi. Toshkent, 2021
18. O‘zbekiston Respublikasining Uy joy kodeksi. Toshkent, 2009.
19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 29 avgustdagi 679-sonli “Shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish hamda qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan ehtiyojlar uchun yer uchastkalari berish, shuningdek ob‘ektlarni qurishga ruxsatnomalar berish tartibini tubdan soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
20. Власов. Д.Н. “Транспортно-пересадочные узлы”. Библиотека научных разработок и проектов НИУ МГСУ. Москва, 2017 г.
21. Добромыслов А.Н. Диагностика поврежденных зданий и инженерных сооружений. Москва, 2006г.
22. Иванов И.А. “Дороги мира. История и современность” Учеб-практ. Пособие. Москва-Вологда. 2017 г.
23. Isamuxammedova D.U., Ismoilov A.T., Xotamov A.T. Injenerlik obodonlashtirish va transport. Darslik., Toshkent.: 2009. 230 b.
24. Коссов А.В., Бахирев И.А. и др. “Транспортная планировка городов” Учебное пособие. Москва, 2017 г.
25. Nizomov Sh.R., Xotamov A.T. Landshaft konstruksiyasi. Toshkent. TAQI, 2010, 55 b.
26. Nizomov Sh.R., Xotamov A.T. “Bino va inshootlarni texnik baholash”. Darslik. Oliy o‘quv yurtlarining talabalari va magistrantlar uchun darslik. – Toshkent., 2012. - 323 bet.
27. Рощина С.И., Лукин М.В. Техническая эксплуатация зданий и сооружений. КНОРУС. Учебноцпособиц. Москва. 2019 г.
28. Шукуров И.С. Вертикальная планировка территорий. Основы автоматизированного проектирования (Учебное пособие). М.: Изд-

во Ассоциация строительных вузов, 2012.

29. Шукуров И.С. и др. Управление городским хозяйством и модернизация жилищно-коммунальной инфраструктуры. (Учебник). М.: Изд-во “Просветитель” 2012.
30. Шукуров И.С. Проектирование и строительство транспортных сооружений Сочи Часть II (Учебное пособие). ЛАП ЛАМБЕРТ, Берлин, 2014.
31. Шукуров И.С., Халилов И.Р. Курсовое и дипломное проектирование по градостроительству (Учебное пособие). М.: Издательство АСВ , 2015.
32. Юнусов М.Ю., Кротов А.В., Хотамов А.Т. Инженерно-технические мероприятия гражданской защиты. Институт гражданской защиты МЧС РУз. Учебное пособие, 2000.
33. Xotamov A.T., Usmonov Q.T. “Shahar hududini kompleks obodonlashtirish”. Toshkent.: 2014. 160 b.
34. Xotamov A.T., Shaxidov A.F. “Shahar ko‘chalari, yo‘llari va transport”. Darslik. Toshkent.: 2018. 364 b.
35. ShNQ 2.07.01-23. “Aholi punktlarining hududlarini rivojlantirish va qurishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish” O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi. <https://mc.uz/>.
36. ShNQ 2.05.02-23. “Avtomobil yo‘llari. Loyihalash talablari”. O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi. <https://mc.uz/>.
37. ShNQ 2.08.01-24 Turar joy ob‘yektlarini loyihalash O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi. <https://mc.uz/>.
38. ShNQ 2.08.02–23 Jamoat binolari va inshootlari O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi. <https://mc.uz/>.

39. ShNQ 2.01.01-22. Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy-geologik malumotlar. O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi. <https://mc.uz/>.
40. ShNQ 2.02.01-24. Bino va inshootlarning zaminlari. O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi. <https://mc.uz/>.
41. ShNQ 2.01.16-21 Turar joy ob'yektlarining jismoniy eskirishini aniqlash. O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi. <https://mc.uz/>.

